

## O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI NUTQ AKTLARIDA XUSHMUOMALALIK STRATEGIYALARINING LINGVOMADANIY-QIYOSIY TAHLILI

**To'xtaniyozova Gulmira**

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti  
Ingliz tili va adabiyoti, 1-fakultet, 2307-guruh talabasi

**Ilmiy rahbar: Saloxiddinova Sayyora**

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot ijtimoiy qadriyatlarning ingliz va o'zbek madaniyatlaridagi muloqot odatlariga ta'sirini Braun va Levinsonning "yuz" nazariyasiga asoslanib o'rganadi. U murojaat shakllari, savollar va kundalik nutqdagi ifodalarni taqqoslaydi.

**Kalit so'zlar:** til, madaniyat, madaniy farqlar, hurmat, xushmuomalalilik, axloq, muloqot, millat, murojaat shakllari, nutq vaziyati, individuallik, jamoaviylik, shaxsiy chegara, ijtimoiy masofa, bevosita va bilvosita nutq.

**Аннотация:** Это исследование изучает влияние социальных ценностей на обычаи общения в английской и узбекской культурах, основываясь на теории «лица» Брауна и Левинсона. Оно сравнивает формы обращения, вопросы и выражения в повседневной речи.

**Ключевые слова:** язык, культура, культурные различия, уважение, вежливость, этика, общение, национальность, формы обращения, речевая ситуация, индивидуальность, коллективность, личные границы, социальная дистанция, прямая и косвенная речь.

**Annotation:** This study examines the influence of social values on communication customs in English and Uzbek cultures, based on Brown and Levinson's "face" theory. It compares forms of address, questions, and expressions in everyday speech.

**Key words:** language, culture, cultural differences, respect, politeness, ethics, communication, nation, request, acts of speech, individuality, collectivism, personal space, social distance, direct and indirect speech.

Til va jamiyat qadr-qimmat, ijtimoiy me'yorlar va jamiyatnin tuzilishini o'zida mujassam etuvchi bir-biridan ajralmas ikki tushunchalardir. Shu bog'liqlikning muhim komponentlaridan biri odamlar orasidagi muloqot va munosabatlarni olib borishda ko'maklashadigan xushmuomalalilik hisoblanadi. U har bitta tilda mavjud bo'lishiga qaramay, uni yetkazib berish shakllari va vositalari madaniyati va jamiyati shakllanishidan kelib chiqib tubdan farq qiladi.

Xushmuomalalilik mashhur tilshunos va sotsiolingvist Braun va Levinson ishlab chiqqan "yuz" g'oyasi, ya'ni insonlarning omma qarshisidagi "o'zlik" sur'ati haqidagi nazariyasi orqali izohlash mumkin. Ularning nazariyasi inson xulqini ikki: ijobiy yuz (atrofdagilarga yoqishga intiladigan mayl) va salbiy yuz (bosimlardan holi o'zini borini ko'rsatishga qaratilgan xohish) farqli guruhlarga ajratadi. Bu qarashlar esa millatlararo muloqotlarni taqqoslashga katta yordam beradi. Bu izlanish davomida inglizlarda odob qanday qilib ko'proq individual avtonomiya va shaxsiy daxlsizlik ustiga qurilganligi va nega o'zbeklar esa, aksincha, jamoaviy hurmat, munosabatlarning qanchalik yaqinliklariga ko'proq e'tibor qaratishini ilmiy va lingvistik nuqta'i nazardan ko'rib chiqamiz.

Braun va Levinsonning xushmuomalilik nazariyasi har qanday tushuntirish va izohlar uchun eng asosiy manbaa bo'lib xizmat qiladi. Ularning modeliga ko'ra, so'zlovchi tinglovchini yuziga aytilishi mumkin bo'lgan noxushliklar darajasini kamaytirish uchun shu strategiyani qo'llashar ekan. Ijobiy "yuz" munosabatlardagi hamjihatlilikni shakllantirsa, salbiy "yuz"li axloqimiz esa suhbatdagi noqulayliklarni kamaytiradi va chegaralarimizni himoyalaydi.

Bundan tashqari, hurmat-izzatni ifodalovchi so'zlar o'zbek tilida juda keng foydalaniladi. Uning hurmatni bildiradigan yosh, mavqe yoki ijtimoiy yaqinlik darajalarini farqlab ko'rsatadigan ko'rinishlari mavjud. Bilvosita nutq va modallarning ekspressivligiga tayanadigan inglizlardan farqli o'laroq, o'zbeklar axloqni to'g'ridan to'g'ri grammatik va leksik tuzilishni o'zidayoq namoyon qilib beradi.

O'zbek va ingliz tillaridagi eng katta farq murojaat shakllaridadir. Ingliz tili shaxsning martabasi va uning kimlini bilish-bilmasligiga qaramasdan, faqatgina ohang va kontekstning o'ziga tayangan holda hammasi uchun bittagina "you" olmoshini ishlatishadi. O'zbek tilida esa bu ikkinchi shaxs olmoshi alohidalanadi va "Sen" hamda "Siz" shakllariga ajratishadi. Shubhasiz, *siz* olmoshi *sendan* ko'ra ko'proq hurmat va ijtimoiy masofani saqlash maqsadida qo'llaniladi.

O'zbeklarda yana bir shunday narsa borki, ular qarindoshi bo'lmasa ham begonalarga *aka*, *opa* yoki *amaki* kabi qarindoshlik atamaları orqali murojaat qilishadi. Bu ommaviy yaqinlik va ierarxiyani mustahkamlaydigan axloqiy me'yorlardan biri sifatida xizmat qiladi. Biroq, ingliz madaniyatida bu kabi atamalardan foydalanish g'alati tuyiladi; ular uchun inson nomi va ohangning o'zi hurmat tuyg'usini shakllantirish uchun yetarli. Shuning uchun ham ular notanish yoki yoshi katta-kichiklarga yuzlanishda *Mr. or Sir*, *Miss or Mrs.* so'zlari va keyin zaruratga ko'ra ismlari bilan yoki ularsiz foydalanishadi.

So'rov-iltimos gaplarining tuzilishi ham asosiy bitta farq hisoblanadi. Inglizabonlar salbiy "yuz" qiyofasidan saqlanib qolish uchun xohishlarini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki "*Could you...?*" yoki "*Would you mind...?*" kabi bilvosita ifoda shakllaridan foydalanishadi. O'zbeklar esa savollarimiz grammatik taraflama ochiq-oydin aytilsa ham *iltimos* so'zi, bundan tashqari intonatsiya, kontekst, va milliy ochiqqo'ngillilik sifatleri orqali yumshatilib aytiladi. Chunki ochiqlik bu madaniyatda tabiiylik va odob belgisi sifatida qaraladi.

Ko'rishish va inkor etish kabi nutq holatlari ham bir qancha tafovutlarni ochib beradi. Inglizlarda, salomlashish, odatda, qisqa va lo'nda bo'ladi: "*Hello*" or "*How are u?*" O'zbeklarda, bu jarayon nisbatan ancha murakkab bo'lib, ko'pincha sog'ligi, holahvoli va uyidagilari haqida ham so'rashib o'tishadi. Norozilik jarayoni ham asosan, inglizlardan farqli o'laroq, to'g'ridan-to'g'ri emas, balki boshqa bilvosita yo'llar orqali bildiriladi va batafsil sabablari hamda hijolatli uzr bilan keladi.

Shu kabi hurmatni belgilovchi tilbirliklaridagi farqlar tufayli ko'plab tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkin. Xuddi o'zbeklarga inglizlarning muloqot unsurlari haddan tashqari ochiq va qo'pol ko'ringanidek, Ingliz so'zlashuvchilariga o'zbek muloqot shakllari o'ta rasmiy yoki noo'rin tuyilishi mumkin, Va mana shu tafovutlat esa bu ikki xil millatlarning dunyoqarash markaziga nimalar qo'yilishini kuzatishimiz mumkin: ingliz xalqi individuallik va shaxsiy chegaralar; o'zbeklarda esa – ijtimoiy yaqinlik va shaxslarga bo'lgan ehtirom. Bularni ajrata olish, o'z navbatida, millatlararo munosabatlarda insonni yanada layoqatli qiladi.

Bu ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz tillari xushmuomalalilikni murojaat shakllari, so'roqlari va nutq vaziyatlari orqali namoyon qilishadi. Ingliz odobida asosiy e'tibor mustaqil shaxsiy irodaga qaratilsa, bu e'tibor o'zbeklarda jamiyatdagi jamoaviylik, ierarxiya va hurmatga yo'naltiriladi. Shuning uchun til kompetensiyasi va muloqot qila olish darajasi ana shu o'xshash bo'lmagan til nozikliklarni anglash va undan xabardor bo'lgan insonlarda ancha yuqori hisoblanadi va xalqaro davralarda ular uchun samarali suhbat kaliti sifatida xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge University Press.
2. Holmes, J. (2013). *An introduction to sociolinguistics* (4th ed.). Routledge.
3. Leech, G. (2014). *The pragmatics of politeness*. Oxford University Press.
4. Mills, S. (2003). *Gender and politeness*. Cambridge University Press.
5. Watts, R. J. (2003). *Politeness*. Cambridge University Press.
6. Wierzbicka, A. (2003). *Cross-cultural pragmatics: The semantics of human interaction*. Mouton de Gruyter.